

**O'ZBEK VA TURK XALQLARIDA SOMATIK TOPISHMOQLAR****Muhammadsodiq SHODMONOV** Alfraganus

Universiteti filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek va turk xalqlari folklorining eng qadimiy janrlaridan biri bo'lgan somatik topishmoqlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – somatizmlar (inson tana a'zolari) orqali shakllangan topishmoqlar misolida ikki turkiy xalqning olamning lisoniy manzarasidagi umumiy va milliy xoslangan tafovutlarni aniqlash. Tahlil natijalari har ikki madaniyatda ham funksional va morfologik yondashuvlar mavjudligini, ammo ularning ustuvorligi xalqlarning dunyoqarashida farqlanishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: somatik topishmoqlar, turk xalqlari folklori, somatizm, qiyosiy tahlil, lisoniy manzara, madaniyat, dunyoqarash, e'tiqod.

Abstract

This article is devoted to the comparative-typological analysis of somatic riddles, one of the oldest genres of Uzbek and Turkish folklores. The main goal of the research is to determine the common and nationally specific differences in the linguistic worldview of the two Turkic peoples, using riddles formed through somatisms (human body parts) as examples. The analysis results showed that both cultures have functional and morphological approaches, but their dominance differs in the worldview of the peoples.

Keywords: somatic riddles, turkic peoples' folklore, somatism, comparative analysis, linguistic worldview, culture, worldview, beliefs.

Kirish

Topishmoqlar xalqning turmush tarzi va qadimiy e'tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va



totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda—«insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda» (F.I.Buslaev) paydo bo'la boshlagan.¹

Topishmoq - bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o'quvchining ixtiyoriga qoldiradigan o'yin bo'lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi Topishmoqlar bir necha so'zdan tashkil topgan gap shaklida ham, juftlik yoki bayt shaklida ham bo'lishi mumkin. Ko'p topishmoqlar qofiya holida keladi.² Xalq topishmoqlari folklorning eng qadimiy janrlaridan biri bo'lib hozirgacha o'zining ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda³.

Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, hamma vaqt reallikka asoslanadi. Unda atrofimizdagi o'rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Topishmoqda atrofimizdagi narsalarning badiiy-estetik tomonlari, xalqning urf-odatlar aks etadi. Unda tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi⁴.

Tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi termini haqida quyidagi ta'riflar keltirilgan: olamning lisoniy manzarasi “tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilda barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlar, dunyoni anglash va bo'laklash usullarining jami” demakdir, “Olamni idrok etishning muayyan til jamoasi ongida tarixan shakllangan, uning tilida barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo'lgan odatiy hamda majburiy usullari majmuyi; olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullar yig'indisi”, “Borliqni idrok etishning tilda aks etgan, millatning ko'p asrlik tajribalari orqali shakllangan, insonning voqelikka munosabat tarzini belgilovchi, zamonda o'zgaruvchan, olamning ilmiy manzarasiga nisbatan sodda milliy

¹ Qalandarov Shuhratjon Sopoxonova Gulnoza Topishmoqlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari Barqaror Taraqqiyo va rivojlanish tamoyillari resublika ilmiy-amaliy konfrensiya Volume: 2 Issue: 1 B - 30

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Topishmoq>

³ Z.Xusainova "O'zbek topishmoqlari" T.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti 1996 B. 2

⁴ Hamidova Muhayyoxon Boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyoti N.: "Usmon Nosir media" nashriyoti, 2022, B - 42-43



o‘ziga xos shakli” dir. Xullas, “Har bir tabiiy til olamning o‘ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi”⁵.

Yuqoridagi ta’rifdan ko‘rinadiki, olamning lisoniy manzarasi har bir xalqning dunyoni idrok etish shakli, tafakkuri, qadriyatlari va madaniy tajribasining tilda mujassam bo‘lgan ifodasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xalqning dunyoni idrok etish shakli, tafakkuri, qadriyatlari va madaniy tajribasi nafaqat tilda, balki xalq og‘zaki ijodi – topishmoq, maqol, matal, afsona kabi janrlarda ham namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Turk olimi Ilhan Bashgo‘z “Türk Folkloruna Giriş” nomli asarida folklor namunasi bo‘lgan topishmoq, maqol kabilarga umumiy folklor haqida quyidagi fikrni beradi: Başgöz, çalışmasının girişinde “Folk-lore: Halk kültürü, halk bilimi, tarif ve çalışma alanı” başlığı altında bir bilim olarak “folklor”u tanımlamayla işe başlar. Yabancı araştırmacılarca ortaya konan sekiz adet folklor tanımını iktibas eder ve folklor ürünlerinin, “Anonim olmak, yani yaratıcısı bilinmemek”, “Sözlü olmak” ve “Geleneksel olmak” özelliklerini kültürümüze ait iki bilmece, iki atasözü, iki mani, bir türkü ve bir kadı fikrasını örnek vererek açıklar⁶.

Tarjimasi:

"Başgöz o‘z ishining kirish qismida 'Folklor: Xalq madaniyati, xalq bilimlari, ta’rifi va tadqiqot sohasi sarlavhasi ostida folklorni bir fan sifatida ta’riflashdan boshlaydi. U xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan sakkizta folklor ta’rifini keltiradi va folklor mahsulotlarining quyidagi xususiyatlarini — “Anonim bo‘lishi, ya’ni yaratuvchisining noma’lum bo‘lishi”, “Og‘zaki bo‘lishi” va “An’anaviy bo‘lishi” — madaniyatimizga oid ikki topishmoq, ikki maqol, ikki mani, bir qo‘shiq va bir qiziqarli latifa orqali tushuntiradi."

Ilhan Bashgo‘zning folklor haqida keltirgan fikridan folklor namunasi bo‘lgan topishmoq haqida quyidagi xulosaga kelish mumkin: U topishmoqlarni (bilmece) xalq ijodining uch asosiy belgisi — anonimlik, og‘zaki shakl va an’anaviylik — nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

Quyida o‘zbek va turk xalqlarida somatik topishmoqlarni ko‘rib tahlil qilamiz:

⁵ Muqimova Zohida Lingvomaniiy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozgan disertatsiya T - 2025 B - 34

⁶ Salahaddin Bekki Prof. Dr. İlhan Başgöz’ün Yayımlanmamış Bir Eseri [Türk Folkloruna Giriş] Üzerine folklor/edebiyat, cilt: 25, sayı: 100, 2019/4 S - 746



Somatizmlar – bu odam yoki hayvon tanasi qismlarining asl ma’nosiga ega bo‘lgan otlar⁷. Topishmoqlar, ayniqsa somatic topishmoqlar, o‘zbek va turk xalqlarining inson tanasi orqali borliqni anglash usullarini va ularnin umumiy turkey madaniy-tafakkuriy aloqalrini ochib beruvchi qadimiy hamda muhim folklor janrlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek va turk xalqlarida somatik topishmoqlarga misollar va tahlili:

Qizil buzog'imni og'ildan haydasm, chiqmaydi. (Til)

Somatizmning mavjudligi: Inson tana a’zosi bo‘lgan til ifoda etilmoqda. Ushbu topishmoqda “Qizil buzog‘im” – tilning rangi qizil, yumaloq va harakatchan shaklining buzog‘ga qiyoslanmoqdaligini ko‘rishimiz mumkin. “Og‘il” – og‘iz bo‘shlig‘I ya’ni tashqi dunyodan ajratilgan joy qiyoslanmoqda.

Üstü mermer altı mermer, içinde gelin oynar. (Dil)

Bu turk xalq topishmog‘ida ham somatizmning mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Üstü mermer altı mermer deganda ustki va ostki tanglay oppoq marmarga qiyoslanmoqda. İçinde gelin oynar degan qismi esa tilning nutq jarayonidagi chaqqon, uzluksiz va nozik harakatini ifodalashvazifasini bajarmoqda.

Yuqorida ikki xalqda javobi ayni bo‘lgan ikki topishmoq keltirildi. Ikki xalq topishmoqlari somatik obrazdan foydalanishda umumiy tafakurni ko‘rishimiz mumkin, ammo farqli jihatlariga duch kelamiz. O‘zbek topishmog‘ida tilni hayvon obrazi orqali tasvirlandi. Turk topishmog‘ida tilni inson obrazi orqali ifodalandi

Ustida ikki darcha,

O‘rtasida bir kunda. (Burun)

Bu o‘zbek topishmog‘ida inson tana a’zosi bo‘lgan burun jumboqlanib kelmoqda. “Ustida ikki darcha” – bu yerda “ikki darcha” deganda burunning tagida joylashgan ikki burun teshigi nazarda tutilgan. “Ustida” so‘zi esa ikki burun teshiklarining burun ostida emas, balki burun a’zosi ichida joylashganinini ifodalamoqda. “O‘rtasida bir kunda” – bu

⁷ Mavlyuda Gadoyeva Somatik leksikaning xususiyatlari Scientific progress Volume 2|Issue 6|2021 Page 1749



yerda “kunda” soʻzi burun devoriga ishora qilmoqda. Bu yerda kunda burundagi ikki teshikni ajratib turuvchi oʻrtadagi qism nazarda tutilmoqda.

İki dereden su gelir, beş parmak karşı gelir. (Burun)

"İki dereden su gelir" (Ikki daryodan suv keladi): Burun teshiklari (ikki daryo) orqali shamollash yoki yigʻlash paytida ajraladigan suyuqlikka (suvga) ishora qilmoqda. "Beş parmak karşı gelir" (Besh barmoq qarshi keladi): Burunni artish yoki qashish uchun qoʻlning (besh barmoqning) avtomatik harakati ifodalangan.

Burun haqidagi oʻzbek topishmoqlari, asosan, uning shaklini ikki teshikli idishga oʻxshatish taʼriflamogʻda. Turk topishmogʻi esa, burunning vazifasi (shamollashda suv oqishi) va uni artish harakati haqida gapiradi.

XULOSA

Tadqiqot Oʻzbek va Turk xalqlarining somatik topishmoqlarini qiyosladi. Ikkala xalq ham topishmoqlarda inson tanasi (somatizmlar) orqali dunyoni tushunishga harakat qilgan va bu ularning umumiy ildizlarini koʻrsatadi. Qiyoslash natijalari shuni koʻrsatdiki: Biz tahlil qilgan oʻzbek topishmoqlari: Tana aʼzolarining hayvon va narsalarga oʻxshatishga koʻproq moyil. Turk topishmoqlar esa tana aʼzolarining vazifasi va insoniy goʻzal obrazlarga oʻxshatishga ustuvorlik bergan. Somatik topishmoqlar ikki xalqning dunyoqarashini va tildagi tafovutlarini oʻrganish uchun juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekki S. Prof. Dr. İlhan Başgöz'ün Yayınlanmamış Bir Eseri [Türk Folkloruna Giriş] Üzerine. folklor/edebiyat, cilt: 25, sayı: 100, 2019/4.
2. Gadoyeva M. Somatik leksikaning xususiyatlari. Scientific progress. Volume 2, Issue 6, 2021.
3. Hamidova M. Boshlangʻich taʼlimda bolalar adabiyoti. N.: “Usmon Nosir media” nashriyoti, 2022



4. Muqimova Z. Lingvomaniiy kodlarning olamning lisoniy manzarasiidagi oʻrni. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiya. T., 2025.
5. Qalandarov Sh., Sopoxonova G. Topishmoqlar va ularning oʻziga xos xususiyatlari. Barqaror Taraqqiyo va rivojlanish tamoyillari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Volume: 2, Issue: 1.
6. Xusainova Z. Oʻzbek topishmoqlari. T.: Oʻzbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1996.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Topishmoq>

